



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 3 - mart

VI-59-50-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmonining tumandagi ijrosi va mahallalar faoliyatida uchrayotgan dolzarb muammo va kamchiliklar yuzasidan tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘ining axboroti to‘g‘risida

Nuroniylar va keksalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlariga ijtimoiy hamjihatlik va adolatlilik tamoyillari asosida keksa avlod vakillarining hayot sifati va uzoq umr ko‘rish darajasini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, keksa avlod vakillariga o‘z vaqtida, manzilli va samarali ijtimoiy yordam ko‘rsatilishini ta‘minlash, ularga sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, ta‘lim, madaniyat va transport tizimlaridan foydalanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, mahalla fuqarolar yig‘inlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlab, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilib, mahalla tizimini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilmoqda.

Tumanda 36 ta mahalla fuqarolar yig‘inlari mavjud bo‘lib, 2022-yil may oyida mahalla fuqarolar yig‘ini raislari (oqsoqoli) saylovi o‘tkazildi, 36 nafar oliy ma‘lumotli, 25 nafari birinchi marotaba, 11 nafari amaldagi raislar saylandi. Shundan 2 nafari ayollar, 34 nafari erkak raislar faoliyat yuritib kelmoqda.

31 ta mahalla fuqarolar yig‘inlari binolari o‘z balansiga olinib kadastr hujjatlari to‘liq rasmiylashtirilgan, 3 ta mahallalar ya‘ni “Tallashqon”, “Karvon” va “O‘zbekiston” mahalla fuqarolar yig‘inlari o‘z binosiga ega emas, shu sababdan turli tashkilot va muassasalar binolarida faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu MFYlarga yangidan bino qurib berish maqsadida “Tallashqon” MFYga davlat sherikchiligi asosida tuman xokimining qarori chiqarib berilgan.

Mahallalarning moddiy texnik ta‘minoti yaxshilanib, “Qadimiy Angor” va “Qoraqir” mahalla fuqarolar yig‘inlariga yangidan MFY binosi qurib jihozlandi.

Tumanda faoliyat yuritayotgan 7 ta MFYlarga konditsioner va mebel jamlanmalari

berildi, “Yashil makon” umummilliy loyihasini tadbqiq etish hamda daraxtlarni ekish, parvarishlash va ko‘kalamzorlashtirish maqsadida tumandagi 36 ta MFYlarning bo‘sh turgan yerlariga terak ko‘chatlari va qalamchalari ekilib parvarishlanmoqda.

Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman hokimi yordamchisi, mahalladagi yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoli, ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorlari faoliyatini hududdagi birinchi navbatda hal etilishi lozim bo‘lgan muammolari bartaraf etishga yo‘naltirish hamda bu borada jamoatchilik nazorati o‘rnatildi.

Aholi muammolarini o‘rganish, tahlil qilish va hal etish hamda murojaatlarni davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ko‘rib chiqishning bir-biri bilan uzviy bog‘langan to‘rt pog‘onali “mahalla-tuman-viloyat-respublika” tizimi joriy etilib, hududda mahalla raisi tomonidan aholi e‘tirozlariga eng ko‘p sabab bo‘layotgan muammolarni aniqlash maqsadida muntazam ravishda muhokamalar o‘tkazilmoqda.

Tumandagi 36 ta mahalla fuqarolar yig‘inlaridan 22 ta MFYda jinoyat sodir etilmagan, 14 ta MFYlarda jinoyat o‘sgan. Jumladan, 2022-yilda Guliston MFYda 8 ta, Qorasuv MFYda 5 ta, Zartepa MFYda 5 ta, Dehqonbirlashuv MFYda 5 ta, Qadimiy Angor MFYda 2 ta, Yangiturmush MFYda 14 ta, Navro‘z MFYda 14 ta, O‘zbekiston MFYda 19 ta, Sharq guli MFYda 12 ta jinoyatlar sodir etilgan. Ushbu jinoyatlarning oldini olish borasida mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda aholi o‘rtasida keng tushuntirish ishlarini olib borilmaganligi natijasida tumanda jinoyatlar o‘sgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmonining tumandagi ijrosi to‘g‘risida Angor tumani mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash bo‘limi boshlig‘i Sh.Mirzayev va tumandagi “Navro‘z”, “O‘zbekiston”, “Yuqori Tallimaron”, “Xomkon” hamda “Qorasuv” mahalla fuqarolari yig‘inlari raislarining axborotlari xalq deputatlari tuman Kengashining Ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishida muhokama etilganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Angor tumani mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash bo‘limi boshlig‘i Sh.Mirzayevning axborotlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmoni 17-bandiga asosan

tumandagi mahalla fuqarolar yig'ini raislari:

- mahallada tuman hokimining yordamchisi, mahalladagi yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoli, ichki ishlar bo'limi tayanch punkti profilaktika (katta) inspektori faoliyatini mahalladagi birinchi navbatda hal etilishi lozim bo'lgan muammolarni bartaraf etishga yo'naltirish hamda bu borada jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

- mahallada tuman hokimining yordamchisi, mahalladagi yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoli, ichki ishlar bo'limi tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorini rag'batlantirish yoki ularga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan jazo choralari qo'llash bo'yicha mazkur xodimlarning yuqori turuvchi tashkilotlariga ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish;

- mahallada aholi e'tirozlariga eng ko'p sabab bo'layotgan muammolarni aniqlash maqsadida muntazam ravishda muhokamalar o'tkazish;

- har oyda mahalla kengashida tegishli davlat organlari va tashkilotlar rahbarlarining amalga oshirilgan ishlari bo'yicha axborotini eshitish hamda muammolarning bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

- har chorakda davlat organlari va tashkilotlar tomonidan mahallada amalga oshirilgan ishlar natijalari hamda bartaraf etilmagan tizimli muammolar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Angor tumani Xalq qabulxonasiga ma'lumotlar kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

3. Angor tumani Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (Sh.Mirzayev)ga:

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish sohasida sektorlar bilan o'zaro hamkorlik qilish;

- mahalla tizimiga oid qonun hujjatlariga rioya qilinishi monitoringini olib borish va nazorat qilish;

- fuqarolar yig'inlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

- budjet mablag'larining maqsadli va manzilli sarflanishini, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishini tashkil etish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining xizmat faoliyatiga bog'liq bo'lmagan vazifalar va ishlarga jalb qilinishiga yo'l qo'yilmasligini ta'minlash;

- mahallalarda aholi muammolarini aniqlash va hal etish, murojaatlar bilan ishlash bo'yicha «mahalla - sektor - Xalq qabulxonasi - mahalla» prinsipi asosidagi hamkorlik tizimini samarali tashkil etish choralari ko'rish topshirilsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati, "Angor yog'dusi" gazetasi tahririyati

(G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Yuqorida belgilangan vazifalar yuzasidan mansabdor shaxslar tomonidan **har chorak yakuni** bilan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirova) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov